

Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi.

**Axborot bibliografiya xizmat rahbari Munira Raximova
tomonidan**

**“Bolalar va yoshlarni mutolaaga
jalb qilish” mavzusida tayyorlagan**



USLUBIY TAVSIYANOMA

Do`stlik sh

Ushbu uslubiy tavsiyanomadan kutubxona muassasalarida faoliyat olib borayotgan barcha kutubxonachilar foydalanishi mumkin.

Bolalar va yoshlar o`rtasida kitob mutolaasi muammosi va vazifalari.

Kitob insonni yerdan ko`kka ko`taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, qalbga yorug`lik baxsh etadigan, oq bilan qorani, yaxshi bilan yomonni farqlashga o`rgatadigan insoiyatning eng yaxshi kashfiyotidir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Ma`naviyat va ma`rifat markazi bo`lmish kutubxonalar bugungi kunda bolalar va yoshlarni kitobga bo`lgan qiziqishlari oshirib kitobga bo`lgan hurmatni shakllantirishda ko`pgina tadbirlar loyihalar va tanlovlar o`tkazib muammolar yechimini topish yo`lida tinmay izlanib mehnat qilmoqda. Chunki bugun kitobxonlik davlat siyosati darajasida yechimini topishi kerak bo`lgan masalalardan biridir. Shu muammo va vazifalarni yechimini topish maqsadida quyidagi loyihalar va takliflarimni bayon qilaman. Bolalar va yoshlarni mutoalaaga jalb qilish bilan birga ularni kitobga bo`lgan mehrini, qiziqishini shakllantirish, kitobga bo`lgan e`tiborini oshirishimiz kerak. Buning uchun ushbu uslubiy tavsiyanomaga birqancha qiziqarli bo`lgan loyiha va tanlovlarni kiritdim. Bu loyihalarni amalga oshirishni keling kutubxonadan emas maktabgacha ta`lim tashkilotidan boshlaylik. Birinchi loyihaga "Bilag'on bolajon ertakchilar" nomini berdim. Buning uchun oldin bolalarga ertak aytib beriladi, bunda barcha guruhlar uchun bir xil ertak aytilishi kerak bo`ladi. Mana shu ertak asosida teskari sahna ko`rinishi tayyorlanadi. Sahna ko`rinishini tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar yoki muassasadagi mavjud o`yinchoq, qo`g`irchoqlardan foydalanib tayyorlanadi. Teskari sahna ko`rinishi deganimizda ertak qahramonlarini holatini so`zlarini boshqa qahramon aytishi kerak bo`ladi. Bolalar esa qahramonlarni eshitgan ertaklari asosida tuzatishlari kerak bo`ladi. Bu jarayon orqali bolalarda ertak qahramonlarini eslab qolish, ijobiy va salbiy qahramonlarni ajratishni hamda fikrlashga o`rgatadi.

1. Davlat maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyachilari va tarbiyalanuvchilari yoki muassadagi mavjud o`yinchoq qo`g`irchoqlardan foydalanilsa ham bo`ladi.
2. Ushbu loyiha doimiy tashkil qilinishi kerak.



Boshlanishi:

Yil boshida boshlanadi.

Tugatish:

Yil oxirida tugatiladi.

“Bilag`on bolajon ertakchilar” tavsifi.

1. “Bilag`on bolajon ertakchilar” loyihasida bola o`z ko`zi bilan ko`rib fikrini aytib ishtirok etsa, o`zi harakat qilib, atrofidagilarga qo`shilib harakat qilsa loyiha o`z samarasini beradi. Chunki inson ko`rganini eshitgandan ko`ra ko`proq eslab qolish qobiliyatiga ega.
2. “Bilag`on bolajon ertakchilar” loyihasining maqsadi bolalarning ongida ertaklar asosida kitobga bo`lgan e`tiborni shakllantirish.
3. Davlat maktabgacha ta`lim muassasasida ertaklar reja asosida belgilangan bir kunda aytilishini yo`lga qo`yish kerak.
4. Belgilangan sanada barcha guruhlar uchun bir xil ertak aytilishi kerak bo`ladi.
5. Kunning ikkinchi yarmida ertak asosida teskari sahna ko`rinishi qo`yib berilishi kerak.
6. Bu loyiha bir oyda bir marotaba o`tkazilsa bo`ladi.

2. XXI asr axborot-texnologiyalar asri ekan biz hoxlamasakda ijtimoiy tarmoqlar bizdan ancha ilg`orligi va oz`iga ohangrabodek tortayotgani kundek ravshan. Biz ko`zlagan natijaga erishish uchun undan o`ta samarali foydalansak bo`ladi. Men ijtimoiy tarmoqlar uchun ham o`z takliflarimni bildirib o`tmoqchiman. Eng avvalo internet olamini kitoblar bilan boyitishimiz kerak. Chunki so`ralayotgan ba`zi kitoblarniyam ma`lumotlarniyam topib


bo`lmaydi. Har bir kun uchun elektron kitobni eng ommabopini qisqacha mazmuni va u kitobni nima uchun o`qish kerakligini xabarini qoldirishimiz kerak.

Ijtimoiy tarmoqlarda mana bunday shakldagi asarda ishlatilgan buyumlar rasmlari qoldirilib bu qaysi asarda tasvirlanishi va bu buymlar, taomlar, ismlar yana qaysi asarlarda uchrashini topishlari kerak bo`ladi. Loyiha nomi **“Eslab topamiz, topolmasak o`qib topamiz!”**

Masalan: Bu O`tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridan olingan rasmlar bo`lib bunda dandon sopli pichoq, tut daraxti “Shum bola” qissasida ham ishlatilgan. Yana bir misol ismlarni oladigan bo`lsak Jamila ismi yoki Zebi, taomlarga keladigan bo`lsak moshkichiri qaysi asarlarda uchrashini toppish kabi jumboqli boshqotirmalar tayyorlab ijtimoiy tarmoqlarda berilsa hech kimni befarq qoldirmaydi.

“Eslab topamiz, topolmasak o`qib topamiz!” loyihasi tavsifi.

“Eslab topamiz, topolmasak o`qib topamiz!” loyihasi uchun juda ko`p asarlarni yoritib beruvchi foto suratlar jamlanib istalgancha shakllarda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib borilishi kerak. Qancha ko`p va xilma-xillikda tayyorlangan materiallar joylansa shuncha e`tiborni tortadi. Oddiy kichik elementlar ham katta rivojlanishlarga sabab bo`lishi mumkin.



“Dunyoning ishlari” asarda yozuvchi nechta nuqsoni bor qahramon kiritganini bilasizmi. Agar asarni o`qigan bo`lsangiz topa olasiz. Sizga asar qahramonlarini ismlarini e`tiboringizga havola qilamiz!

Nilufar, Ermon buvi, Klava xola, To`xtavoy, Xayri opa, Acha xola, Qahramon, Abduvohid, Orif, Vali, Zebi, Rano, Egamberdi, Xo`ja, Murodjon, Pistachi, Risolat, Afzalxon, Saida, Sharopat opa, Naim, Toyir, Bashoratxon, Asqar, Guli, Shayx.




3. “Kutubxonaga maktublar” tanlovi

Bu tanlov 2 bosqichli bo`ladi.

Ixtiyoriy yozish qobiliyatiga ega 7-70-yoshgacha ishtirok etishi mumkin. 1-bosqichda E`lon tayyorlanadi, tanlovning o`tkazilish vaqti hamda qanday ishtirok etishi mumkinligi aytib o`tiladi va qanday maktublar yozilishi mumkinligi tushintiriladi.

Kichik yoshdagilar o`qish, adabiyot kitobini o`qib o`ziga nimalar olganligi va qaysi jihatlari yoqqanini yoki aksini yozishi mumkin. Katta yoshdagilar yozuvchilar va ularning asarlarini o`qiganda qanday taassurot uyg`ongani haqida taklif va e`tirozlarini bayon qilishlari mumkin.

2-bosqichda maktublarni qabul qilish va natijalarni bilishdan iborat bo`ladi. Kutubxonaga yuborilgan maktublar kutubxona xodimlari tomonidan o`qib chiqiladi va eng zo`r yozilgan uchta maktub saralanadi. Maktub egalari "Kitobxon haftaligida" yozuvchilar tomonidan taqdirlanadi.



4. **"Bu kitobdan minnatdorman"** loyihasi. O`qituvchilar yoki eng ko`zga ko`ringan mashxurlar bolaligida o`qigan esida saqlab qolgan, eslasa o`zgacha his tuyg`ular aks etadigan kitoblari bilan tashrif buyurib sinflarda uchrashuvlar tashkil qilinishi kerak bo`ladi, buning uchun sinfdagi o`quvchilar ham o`zlari o`qigan yoki o`qiyotgan kitobi bilan shu kuni ishtirok etishi kerak. Bolaligida o`qib, yillar o`tsada shu kitobni qahramonlariga o`xshashni orzu qilib ardoqlab, dunyo qarashlarini o`zgarishiga saba bo`lganligini hamda yangi o`zgacha kitob olamiga yetaklagan asar bo`lganligini bu kitobdan minnatdor bo`lganligini qiziqarli bayon qilib muloqat orqali o`sha kitoblarga mehr uyg`ota olish mumkin.

"Bu kitobdan minnatdorman" loyihasi tafsifi.

1. "Bu kitobdan minnatdorman" loyihasi maqsadi eng avvalo kitob insonga qanchalik ta`sir qilishini yuzma-yuz holatda tinglovchiga chiroyli nutq bilan qiziqarli tarzda bayon qilish orqali yetkazib berish.

2. O`zining bolaligida o`qib qalbidan chuqur joy olgan asar haqida bir kun kelib ular ham kimlargadir aytib berishi kerakligini tushintirib qo`yish.

3. O`qituvchimi, oddiy insonmi, olimmi, mashhur yozuvchimi kim bo`lishidan qattiy nazar hayoti davomida minnatdor bo`ldigan ulug` va aziz ne`matlar bor shulardan bittasi kitob ekanligini ularning ongiga singdirish.

Yana shu o`rinda bir narsani qo`shimcha va taklif qilmoqchiman. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida biror soha rivojlanishi uchun reklamani zo`r tarzda tayyorlasharkan yoki o`sha mahsulotni narxini imkon qadar arzon narxlarda sotuvga qo`yarkan. Masalan futbolni butun dunyo

millionlar o`yiniga aylantirish uchun to`p narxini juda arzonlashtirishgan ekan. Shunday qilib futbolni rivojlanishi olib kelingan ekan.

Adabiyotshunos olim Abdulla A`zamning

kitob o`qimaydiganlarga foydasi yo`q pandlaridan.

Bolalarni kimgadir zarur bo`lgani uchun emas, balki ular baxtli bo`lishlari uchun kitob o`qishga o`rgatish kerak. Chunki, bir tomondan, adabiyot – san`atning bir muhim turi. Umri davomida kuy va qo`shiqdan, kino, teatr, tasviriy san`at, arxitektura asarlaridan, go`zal manzaralardan, gullardan zavqlanmay o`tgan odam kim-u, kitob o`qib zavqlanmay o`tgan odam kim? Ikkinchi tomondan, kitob tafakkur ozig`idir.

Kitob saodat topish uchun o`qilmaydi. Unutmaslik kerakki, kitob o`qishning o`zi – oliy saodat.

USHBU TAVSIYANOMADA KELTIRILGAN TAKLIFLAR SIZLARGA MAQUL BO`LSA, YOKI XATO KAMCHILIKLARINI KO`RSANGIZ, SIZDA HAM TAKLIFLAR BO`LSA ALBATTA BIZ BILAN BOG`LANING. BIZ HAMKORLIK QILISHGA DOIM TAYYORMIZ.

BIZ BILAN BOG`LANING: 94 194 84 37

Axborot bibliografiya xizmat rahbari Munira Raximova tomonidan tayyorlandi.